



## **O‘QUVCHILARDA OILAVIY MILLIY HUNARMADCHILIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI TADBIRKORLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH**

*Xudoyqulov Xol Jumaevich. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Pedagogika va umumiy psixologiya” kafedra professori, pedagogika fanlar doktori. Xalqaro “Pedagogik ta’lim” fanlar akademiyasining akademigi.*

*El.pochta: [xol.xudayqulov.51@mail.ru](mailto:xol.xudayqulov.51@mail.ru). Telefon: 90-128-47-10.*

*Boboqulova Dilfuza Mengliboyevna. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, “Pedagogika va psixologiya” kafedراسи mudiri p.f.f.d (PhD), dotsent*

*Email: [d.boboqulov@dtpi.uz](mailto:d.boboqulov@dtpi.uz). Tel: +998995566811.*

**Аннотация:** Ушбу мақолада мактаб ўқувчиларининг оилада ота-оналари раҳбарлигида тadbirkorlikнинг илк кўникмаларини ўрганиш орқали иқтисодий имкониятларни барқарорлаштириш ҳамда ўз қизиқиш ва хохишига кўра миллий ҳунармадчилиқни ривожлантириш усуллари, даромат олиш йўллари шакллантириш ҳақида сўз юритилади. Мавзуга мос бўлган турли миллий ҳунармадчилиқ турларидан қизлар ва йигитлар учун алоҳида оилавий тadbirkorlikни ривожлантиришнинг шаклларига изоҳ беради.

**Калит сўзлар:** ўқувчи, тadbirkor, ота-она ва маҳалла, миллий ҳунармадчилиқ, тadbirkorlik, иқтисодий барқарорлик, тежамкорлик тарбияси, пазандачилиқ, тикувчилик, чорвачилиқ, деҳқончилик, кулолчилик, зардўзлик ва ўймакорлик ҳунарлари.

## **ФОРМИРОВАНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛСТВА И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНОГО НАЦИОНАЛЬНОГО РЕМЕСЛЕННОГО МАСТЕРСТВА У ШКОЛЬНИКОВ**



**Аннотация:** В данной статье рассматриваются способы стабилизации экономических возможностей школьников путем обучения первым навыкам предпринимательства в семье под руководством родителей, а также методы развития народных ремесел в соответствии с их интересами и желаниями и формирования способов заработка. Объясняются формы развития индивидуального семейного предпринимательства для девочек и мальчиков из различных видов народных ремесел, актуальные для данной темы.

**Ключевые слова:** ученик, предприниматель, родители и соседи, национальные ремесла, предпринимательство, экономическая стабильность, бережливое образование, кулинария, пошив одежды, животноводство, сельское хозяйство, гончарное дело, ювелирное дело и резба по дереву.

## FORMATION OF EDUCATION OF ENTREPRENEURSHIP AND ECONOMIC STABILITY THROUGH DEVELOPMENT OF FAMILY NATIONAL CRAFTSMANSHIP IN STUDENTS

**Abstract:** This article discusses the ways to stabilize economic opportunities for schoolchildren by learning the first skills of entrepreneurship in the family under the guidance of their parents, as well as the methods of developing national crafts according to their interests and desires, and the formation of ways to earn money. It explains the forms of developing separate family entrepreneurship for girls and boys from various types of national crafts that are relevant to the topic.

**Key words:** teacher, entrepreneur, parents and neighbors, national crafts, entrepreneur, economic stability, careful education, cooking, sewing clothes, animal husbandry, agriculture, pottery, jewelry and wood carving.

**Kirish:** Bugun yurtimizda tub islohatlar olib borilayotgan bir paytda, yoki uchunchi renessans poydevorini yaratilayotganda o'quvchilarda milliy hunarmadchilikni rivojlantirish orqali oilaviy tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini shakllantirishda maktab, oila va mahalla hamkorligi dolzarb



masalalardan biridir. Shunday ekan jonajon Vatanimiz-“O‘zbekistonni eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish sharafligi va ayni paytda nihoyatda mas’uliyatli vazifalardan biridir”<sup>1</sup>-degan edi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o‘zining yangi O‘zbekiston strategiyasi nomli asarida. Bu davrida yoshlarimizni o‘z taqdirining chinakam egasi, o‘z tarixining ijodkori, o‘ziga xos milliy hunarmadchilikni rivojlantirish orqali oilaviy tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik ko‘nikmalarini tarbiyalashda, yangicha yondashuvga bo‘lgan hurmat yanada oshib bormoqda. Bu esa jamiyatga kirib kelayotgan o‘quvchi yoshlarimizni milliy hunarmadchilikga mos bo‘lgan oilaviy tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik imkoniyatini beradi. O‘quvchilarimiz ota-onalari bilan yashar ekan, albatta oiladagi o‘ziga xos bo‘lgan milliy hunarlarchilikning ilk elementlari haqida ma’lumotlarni oiladi o‘rganadi, mehnat qilish orqali tadbirkorlikning dastlabki ko‘nikmalarini o‘zlarida shakllantirib, iqtisodiy tarbiya barqarorligini o‘rganadilar va ularda daromad olish, iqtisodiy barqarorlik tarbiya tushunchalar qadriyatlarga mos holda shakllangan bo‘ladi.

**Oiladagi milliy hunarmandchilikni qadriyatlar asosida shakllantirish— bu avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, oila a‘zolari tomonidan bolaga o‘z xoxishi va qiziqishiga ko‘ra o‘rgatiladigan va dastlabki mehnat va tadbirkorlik malakalarni o‘z oilalarida qo‘l mehnati bilan bajariladigan ishlarda bevosita faol bo‘lishni odatiy holatga aylantiradilar va doimiy oiladagi iqtisodiy barqarorlik ishtirokchisiga aylanadilar.** Shuni takidlash joizki, oilaviy hunarmadchilik tadbirkorlik elementlaridan biri bo‘lib xo‘jalik yuritishda asos bo‘ladi. Bunday hunarlar qatoriga temirchilik, kulolchilik, to‘qimachilik, pazandachilik, yog‘och o‘ymakorligi, zergarlik va tikuvchilik, hamda oilada ota-onalar raxbarligida qishloq xo‘jalik ishlari, parandachilik va chorvachilik kabi dastlabki oilaviy ishlari kiradi. Bu faoliyat o‘quvchilarni kelajakda **tadbirkorlik**

---

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoev . Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-T.: «O‘zbekistan», 2024 y.B-460



turlari va madaniyatning muhim qismi bo'lib, o'z oilalarda zaruriy buyumlar yaratish, o'z an'analarini saqlash va o'zini-o'zi ta'minlash imkonini beradi. Bu borada **oilada mehnat tarbiyasini berish orqali milliy hunarmadchilik va tadbirkorlikni shakllantirish — oila farovonligini oshirish imkonini oshadi. O'quvchilarga oilaviy va milliy tadbirkorlik haqida tarbiya berishning birinchi elementlarini ota-ona raxbarligida shakllantiradi. O'quvchi oiladagi qishloq xo'jaligi masulotlarini yetishtirishda o'z parniklarda tayyorlangan maxsulotlarda doimiy ishtirok etib, o'ziga kerakli ko'nikmalarni o'zlashtirsa, chorvachilik sohasida uyda tovuqchilik, jo'jalarni parvarishlash, o'rdak va g'ozlarni boqishi, hamda ular bilan o'z qiziqish-xoxishiga qarab ularni oziqlantirish va extiyotkorona munosabatda bo'lishi kabi ilk oilaviy mehnat ko'nikmalarni o'zlarida mujassamlashtiradilar.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev mamlakat parlamentining har ikki palatasini qo'shma majlisidagi murojaatnomasida, tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jumladan, yuqori texnologiyalarni, ilmiy yutuqlarni amalda qo'lash va ishlab chiqarishga joriy etish, malakalarni oshirish, yetakchi xorijiy kompaniya va tashkilotlarda stajirovkadan o'tish va o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratish bizning ustuvor vazifamiz bo'lishi lozimligini ta'kidlar ekan, bu borada milliy hunarmadchilik orqali o'quvchilarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berib o'tgan edilar.

O'zbekiston bugun bozor iqtisodiyotini o'zida shakllantirish uchun ko'plab iqtisodiy muammolarni hal etishni nazarda tutadi, ular orasida oilada mehnat tarbiyasini berish orqali oilaviy hunarmadchilikni va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish muhim o'rin egallaydi va bu jarayonlarga ko'plab oilalar ham jalb etilgan. Hozirgi kunda oilada iqtisodiy tarbiya berish orqali milliy hunarmadchilikni va tadbirkorlikni rivojlantirish — bu oila a'zolari orasida o'z mahallasida keng tarqalgan milliy hunarmadlik orqali iqtisodiy tarbiya imkoniyatlarni oshirish va



mahaladagi yuqori kasbiy imkoniyatlarga ega bo'lgan oiladagi kasblarga havas hislarini o'quvchilarning sinfdoshlari bilan baham ko'rishi va bu borada hamkorlik qilish kabi xususiyatlar o'quvchilarda yangi qiziqishlarni shakllanganligi tadbirkorlik faoliyatiga havas qilish va mehnat tarbiyasi elementlarini o'zlashtirish imkonini yaratadi. Mohiyatiga ko'ra, oilada shakllangan iqtisodiy tarbiya orqali milliy hunarmadchilikni va tadbirkorlikning bir bo'lagi bo'lib, mehnat tarbiyaning kichik bir turidir. Oilaviy tadbirkorlikning asosiy belgilari iqtisodiy tarbiya berish bilan birga iqtisodiy imkoniyatlar yaratish bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- dastlabki moddiy imkoniyat sifatida oila mulki va pul mablag'laridan foydalanish, shuningdek, oilada mehnat tarbiyasini berish orqali milliy hunarmadchilikni shakllanishida o'quvchilarni mablag'larini tejashga jalb etish;
- xo'jalik faoliyatida oila a'zolarining mehnatiga tayanish orqali o'quvchilarda tadbirkorlikni o'rganish va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini shakllantirishga havas hislarini o'yg'otish;
- Yuqori sinf o'quvchilari oiladagi qishloq xo'jalik faoliyatida ishtirok etish va iste'mol qilish uchun zarur bo'lgan maxsulotlar ishlab chiqarish, ya'ni o'z ehtiyojlari uchun va moddiy imkoniyatlar - bozor uchun ishlab chiqarish orqali oilada tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini o'rganish lozimligini anglashdir. O'quvchilarini oilada dastlabki tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiya ko'nikmalarini shakllantirish sohasida milliy hunarmadchilik faoliyatiga doir amaliy ish va dastlabki hunarlarni yuritishi mumkin. Ular o'rta va yirik milliy hunarmadchilik kasblari bo'lib oila a'zolari tomonidan tomonidan qamrab olingan va bevesta oila iqtisodiy imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

Turli mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, oilaviy biznes 200 dan ortiq faoliyat turini qamrab oladi. Bular — chakana va ulgurji savdo, maishiy xizmatlar, kichik restoran biznesi, aholini transport bilan ta'minlash, fermerchilik, madaniy-maishiy va xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, uy-joylar, dacha, garaj, xo'jalik va madaniy-maishiy inshootlarni kichik ta'mirlash va qurish, buxgalteriya ishlari va



audit, xalq hunarmandchiligi. Oilaviy xo‘jalik doirasida kompyuter texnikasini yaxshi biluvchi mutaxassislar, ilmiy xodimlar va yoshlar uchun intellektual mehnatni tashkil etish mumkin. Shunday ekan har bir oila a‘zosi singari yuqori sinf o‘quvchisi ham o‘z oilasida, qolaversa mahallasida mashhur bo‘lgan tadbirkorlarga havas hislari paydo bo‘lib, ularning iqtisodiy barqarorligini borligidan faxrlanadi. Bu esa oilada mehnat tarbiyasi berish orqali oilaviy hunarmandchilikni barqarorligi iqtisodiy ta‘minlanganligini asosi bo‘ladi. Har qanday oilaviy tadbirkorlik iqtisodiy tarbiya **tuzilmalari bilan oilaviy bog‘lanishlarning o‘zaro ta’siri dastlabki iqtisodiy tarbiyani va tadbirkorlik faoliyati uchun yuqori darajadagi motivatsiyani shakllantiradi, oilaviy barqarorligini va uning tashkiliy birligini ta‘minlaydi.** Oilada mehnat tarbiyasining alohida ahamiyati shundaki, oila ish bilan ta‘minlash imkoniyati cheklangan ba’zi bir oila a‘zolarini mehnatga jalb etish imkonini beradi, ya’ni ular boshqa sohalarda ish topa olmagan taqdirda ham o‘z kasbiy faolyatida ishda bo‘lishlari mumkin.

**Rivojlangan mamlakatlarda oilaviy iqtisodiy tarbiya shaxsiy korxonalar iqtisodiy o‘shish va ish o‘rinlari yaratilishida asosiy rol o‘ynaydi. Shunday ekan bizning o‘quvchilarimizda tadbirkorlikning dastlabki iqtisodiy tarbiya ko‘nikmklarni shakllantirish oiladan boshlanadi.** Masalan, AQShda barcha korxonalarining 80 foizidan ortig‘i oilaviy kasb-hunar hisoblanadi, ular umumiy bandlikning 60 foizini ta‘minlaydi va yangi ish o‘rinlarining taxminan 80 foizini yaratadi.

Buyuk Britaniyada esa oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik biznesi mamlakatdagi barcha korxonalarining 75 foizini tashkil etib, milliy mahsulotning taxminan 50 foizini ishlab chiqaradi va mamlakat aholisining yarmini ish bilan ta‘minlaydi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa oilaviy firmalar 85 foizni tashkil etadi. Shuningdek, kichik tadbirkorlik korxonalarida oilaviy tadbirkorlik tanlash ustunlik qiladi, ya’ni ular kichik oilaviy tadbirkorlik tanlash mexanizmlari o‘z



o‘rniga qo‘yadi va iqtisodiy barqarorlikning faol qismini tashkil etadi. Bizning O‘zbekistonda ham o‘quvchilar o‘z xoxishiga ko‘ra oilaviy tadbirkorlik va oilaviy iqtisodiy barqarorlik o‘z kelajaklari uchun asosiy fundament hisoblanadi.

**Bugun bizning mamlakatda ham o‘z farzandlariga** oilada tadbirkorlik va iqtisodiy tarbiya berish orqali milliy hunarmadchilikni **o‘rganishda tadbirkor va firmalar bolalarni yoshligidan xonadonlarida doimiy bajariladigan kasbga havas hislarini shakllantirib, doimiy faolik ko‘rsatishni talab etadilar, o‘z kasbidan oladigan foydani va oilaviy ishtirokchilarni sonini cheklamaydilar.** Tadbirkorlik va iqtisodiy tarbiyaning strategik boshqaruvini bevosita oilaning o‘zi amalga oshiradi.

Odatda, aksiyalarning katta qismi bitta yoki bir nechta qarindosh oilalarga tegishli bo‘ladi va iqtisodiy tarbiya berish meros orqali avloddan-avlodga o‘tadi. Oilada kasbiy tarbiya berish orqali milliy hunarmadchilikni qo‘llab-quvvatlashi kompaniyaning gullab-yashnashida asosiy omil hisoblanadi. **Oilada tadbirkorlik va iqtisodiy tarbiya berish yoki tadbirkorlikning ilk tushunchalarini shakllantirish bugun O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ham yangi va muhim masaladir.** Uning rivojlanishiga doir shart-sharoitlar va tajriba tarixda ham mavjud. O‘zbekiston hududilarida ham asrlar davomida hunarmandchilik orqali ilk tadbirkorlik va iqtisodiy tarbiya ko‘nikmalari keng tarqalgan faoliyat turi bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz ko‘plab tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlikni o‘z hunarlari bilan uy sharoitida, barcha oila a‘zolari ishtirokida amalga oshirgan. Ko‘p hollarda o‘zlari uchun zarur bo‘lgan hunarmandchilik va tadbirkorlik an‘analari, iqtisodiy zamin, kasbiy mahoratiga oid sirlar va tajriba asrlar davomida shakllangan va avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Shu nuqtai nazardan, G‘arb amaliyotida keng qo‘llaniladigan «oilada kasbiy tarbiya berish va tadbirkorlik» tushunchasi tarixiy jihatdan O‘zbekistonda «unutilgan qadriyat» sifatida namoyon bo‘ladi.

**Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, respublikamizda ilk zamonaviy oilaviy tadbirkorlik va iqtisodiy tarbiya berish imkoniyatlari paydo bo‘ldi.** Har



qancha uzoq davr mobaynida xususiy mulkchilik mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, oilada iqtisodiy tarbiya berish imkoniyatlari qayta tiklanmoqda va muayyan iqtisodiy imkoniyatlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, yangi oilaviy tadbirkorlik va hunarmadchilik faol ravishda o‘rganilmoqda. Buning uchun barcha zarur ob‘ektiv asoslar mavjud:

- bandlik sohasining demokratlashuvi,
- mehnat resurslarining yuqori darajada ta‘minlanganligi,
- qishloq xo‘jaligi mos oilaviy mehnat tarbiyasi uchun yetarli xom ashyo bazasi mavjud,
- shuningdek, milliy an‘analari va xalqimizning mentaliteti.

Bularning barchasi oilada tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini berish orqali milliy hunarmadchilikka asoslangan tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga turtki beradi.

Bunday tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiya berish imkoniyatini mustahkamlashdagi muhim qadamlardan biri 2009 yil 29 iyulda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining “Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bo‘ldi. Unda oilada tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini berish orqali tadbirkorlik va hunarmandchilikning huquqiy maqomi va amalga oshirish tartibi hamda ularni rivojlantirish yo‘nalishlari belgilab berildi. Bu esa oilada mehnat tarbiyasini turli faoliyat sohaslarida samarali rivojlantirish va uy sharoitidagi mehnatning yangi shakllarini o‘zlashtirish imkonini berdi.

Respublikaning zamonaviy tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini berish imkoniyatlari bevosita oilaviy kasb-hunar o‘rgatish va iqtisodiy rivojlanish strategiyasida kichik hunarmadchilikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ko‘zda tutilgan bo‘lib, uning tarkibiy qismi sifatida oilada iqtisodiy tarbiya va tadbirkorlik ham alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yillikda bu yo‘nalishda katta ishlar amalga oshirildi.



Oilada tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasi doimiy ota-onalar nazoratida bo‘lib, uzluksiz milliy hunarmadchilik elementlari o‘quvchilarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi. Bu esa oilada tadbirkorlik va iqtisodiy tarbiya berish orqali milliy hunarmadchilikni daromadi va oilaviy biznesni jadal sur‘atlar bilan rivojlanish imkonini beradi. Mamlakatimizda hukumat oilaviy korxonalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlamoda, uni yanada rivojlantirish uchun huquqiy asoslar yaratilgan.

Bugun **O‘zbekistonda har yili oilaviy tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik korxonalar soni tobora ortib bormoqda.** Bu faoliyat turi ayniqsa Xorazm, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida jadal rivojlanmoqda. **Oilada mehnat tarbiyasini berish tadbirkorlik rivoji orqali respublikaning deyarli barcha hududlarida mahalliy aholi bandligi o‘sdi.** Masalan, 2023–2025 yillar davomida oilaviy korxonalarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha yillik soni 754 kishidan 15,8 ming nafargacha oshdi, ya’ni deyarli 21 barobarga. Jumladan, Qoraqalpog‘istonda — 25 barobarga, Buxoro viloyatida — 47 barobarga, Surxondaryoda – 38 barobarga, Farg‘ona viloyatida esa — 159 barobarga oshdi. Oilada tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiya berish orqali milliy hunarmadchilikni **shakllantirish oilalar farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.** Unda ishtirok etish orqali odamlar munosib daromad topish imkoniga ega bo‘lishdi. Aslida, uy xo‘jaligi o‘z oila a‘zolarini ish bilan ta‘minlash va farovonlikka erishishga intilgan holda iqtisodiyotning eng ommaviy sub’ektlaridan biriga aylanmoqda. **So‘nggi yillarda oilada tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini berish orqali milliy hunarmadchilik korxonalarining daromadlari ham keskin o‘sdi.** Oilada tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini berish orqali milliy hunarmadchilikni qadriyatlar asosida rivojlantirish oilaviy biznesning asosiy rag‘batlantiruvchi omillari quyidagilardan iborat:

- oila farovonligini oshirish,



- oilada mustaqil faoliyat yuritish va o‘zini-o‘zi band qilish istagi,
- oila barqarorligi uchun boshqa yo‘l bilan daromad topish imkoniyati yo‘qligi.

**O‘zbekiston qishloq joylarida fermer xo‘jaliklari bilan birga xususiy va oilaviy chorvachilik va tadbirkorlik mahalliy bozorni mahsulotlar bilan ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi va bozor ehtiyojlariga tezda moslashish qobiliyatiga ega. Oilada tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini berish orqali mehnat bozorini barqarorlashtiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi, shu bilan ishsizlikning oldini oladi.**

**Xulosa qilib aytganda,** oilada tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini berish va biznes rivoji mehnatga jalb etilishi qiyin bo‘lgan aholi qatlamlarini ham bandlik sohasiga jalb etadi. Oilaviy korxonalarda ayollar, o‘quvchi bolalar, o‘smirlar va keksalar mehnatidan samarali foydalanish imkoni berildi. Ular uchun bu faoliyat turi mehnat bilan shug‘ullanish va qo‘shimcha daromad olish manbai sifatida xizmat qiladi. **Oilada tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini berish orqali milliy hunarmadchilikni va tadbirkorlikning ichki zahiralari safarbar etish iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikka erishish omillaridan biri hisoblanadi.** Ayniqsa, qishloq joylarda aholining katta qismi o‘z ishlab chiqarishi va tabiiy ehtiyojlarni o‘z hisobidan qondirish hisobiga hayot darajasini ta‘minlamoqda. Bu esa o‘quvchilarda oilaviy milliy hunarmadchilikni rivojlantirish orqali tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik tarbiyasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Mahallalarda va oilalarda mehnat tarbiyasini berish orqali yangicha xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalaridan tadbirkorlikni rivojlantirish orqali oilada iqtisodiy barqarorlik va o‘z-o‘zini boqish imkoniyatlari mustahkamlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M.ning “Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish - eng muhim vazifamizdir”. Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so‘zlagan nutqi. – T.: 2021 yil 20 avgust.



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.28.01.2022.

3. Boboqulov S.B. Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish sohasidagi islohotlar. – T.: TDYUI, 2012. 52-bet.

4. Boboqulova D.M. O'quvchilariga dastlabki tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalarini shakllantirish Uslubiy qo'llanma - T.: Ta'lim, 2022.

5. Kuvandikov Sh.O. Xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlik. Monografiya-Samarqand, 2023

6. Xudaykulov X.J. [Pedagogik mahorat](#). - T.: Navruz, 2013y.

7. Xudaykulov X.J. va Boboqulova D.M. [Pedagogika. Uchebnoe posobie](#). - T.: Innovatsiya-Ziyo, 2021 y.

8. Xudaykulov X.J. [Vliyanie informatsionnykh i kommunikatsionnykh texnologiy na obuchayushixsya v epoxu globalizatsii](#). Jurnal. [Sovremennyye obucheniya](#). - M.: № 4 2017 g.

9. Xudaykulov, X. J. "Zamonaviy ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyadan foydalanish." - T.: Navruz .2011 y.

10. Xudaykulov X. J. [Ta'lim samaradorligini oshirishda mediata'lim tizimidan foydalanish imkoniyatlari](#). publikatsii-T.: 2024 y.

11. Xudaykulov X. J. [Sharqona o'zbeklarga xos odob-axloq me'yorlari](#) va iqtisodiyot. Jurnal. Academic research in educational sciences. Tom-3. Nomer NUU Conference 2. 2022 g, Stranisi 555-561. «Academic Research»

12. Xudaykulov X.J. [Yoshlar tarbiyasida tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik fazilatlarini shakllantirish](#). 2024 y. Jurnal: Scientific approach to the modern education system. Tom-3. Nomer-28. Str - 7-14

13. Худайкулова Ф.Х. [Использование цифровых технологий на занятиях русского языка как средство повышения учебной мотивации и качества](#)



[обучения](#). 2026/1/9. Журнал. Лучшие интеллектуальные исследования. Том-60. Номер-2. Стр. 46-49.

14. Худайкулова Ф.Х. [Роль самостоятельного обучения в развитии языковой компетенции студентов высшей школы](#). 2026/2/23. Журнал «Образование наука и инновационные идеи в мире». Том- 88. Номер-1. Страницы 23-28.

15. Худайкулова Ф.Х. Новые образовательные технологии на уроках русского языка и литературы как средство повышения эффективности обучения: 101-105. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал. 2022

16. Худайкулова Ф.Х. Использование цифровых технологий на занятиях русского языка как средство повышения учебной мотивации и качества обучения. Журнал «Лучшие интеллектуальные исследования». 2026/1/9. Том-60. №-2. Стр. 46-49.

17. Худайкулова Ф.Х. Отличия и проблемы технологии преподавания. Журнал. Лучшие Интеллектуальные Исследования. Международный научный электронный журнал Том-1. Страницы 10-19